

## Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti



## SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI



## O'KUZBEKLAR JAHON ILMIY TAMADDUNINING ASOSCHILARI

*Uroqboy Lafasov**Filologiya fanlar nomzodi, dotsent,**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**Toshkent, O'zbekiston*

## MAQOLA HAQIDA

**Kalit soʻzlar:** Alloh, olam, inson, Yer, Safiyulloh, Nuh, Ibrohim, Muhammad, Som-Abulajam, Hom-Abulhind, Yofas-Abut-turk, Tur, Turon, Turkiston, turlar, oʻkuzbeklar, aynlar, sakura, chiya, Jabarqa, Kun, olov, taom, himoya, enlama nuqta, qutjilarning tamgʻasi, nujum ilmi, rasadxona, oʻrdakent, kichik rasadxona, Bagʻdod Maʼmun akademiyasi, Kosiyon togʻi, Gvatemala, Quchi shahri, oʻchoq, issiqlik, havo, toshtemir, chukun, temir, poʻlat, Sopolli madaniyat, Jarqoʻton qalʼasi, rozgoh, buddizm, kushonlar, Buyuk Irak yoʻli, Dalvarzintepa, Xolchayontepa, Fayoztepa, Qoratepa, Ayritom qalʼasi, Xayrabodtepa, Darband istehkomi, Temir darvoza, Zurmala stupasi, Tavka qalʼasi, Tumanqoʻgʻon qalʼasi.

**Annotatsiya:** Ushbu (“Oʻkuzbeklar jahon ilmiy tamaddunining asoschilari”) maqolada buyuk qudrat egasi Alloh olamni yaratib insonlarning adolatli va erkin yashashlarini taʼminlash uchun islom qonunlarini joriy qilganligi, Yer yuziga odam bilan islom birga tushirilganligi va Yaratgan islomni toʻrt marta yangilanganligi haqida yozilgan. Ushbu yangilanishlar Safiyulloh, Nuh, Ibrohim va Muhammad(s.a.v) davrida boʻlganligi taʼkidlangan. Tengsiz Parvardigor insonlar uchun bino qilingan yulduzlar turkumiga asosiy quvvatlanish (energiya) manbai sifatida Kunni va Yer sharidagi odamlar yanada yaxshi hayot kechirishlari hamda qoʻshimcha kuch-quvvat olishlari oʻtini inʼom qilganligi, Yerdagi Odam ota va Havvo onaning zurriyotlari olov yordamida haqiqiy himoyani va taom lazzatini his eta boshlaganlari va bu Nuh toʻfonigacha davom etganligi aytilgan. Hozir Yerda yashayotgan insonlar Nuhning uch oʻgʻli Som-Abulajam, Hom-Abulhind, Yofas-Abut-turkdan tarqaganligi aytib oʻtilgan. Ota duosini olgan Yofas (Tur)ga Turon va Turkiston berilganligi va uning avlodlari turlar deb atalganligi, turlarning aslzodalari oʻkuzbeklar, yaponlarga asos boʻlgan aynlar esa turlarga mansubligi, yaponlardagi sakura aslida chiya, Yaponiyaning asl nomi Jabarqa “quruqlik bor joy” ekanligi sharhlangan. Yer yuzida Koʻkdagi sayyora va yulduzlar tiniq koʻrinadigan beshta enlama (kenglik) nuqta borligi, ularning barchasi turlar yashaydigan hududda ekanligi, nuqtalar birlashtirilganda aylana shakl yuzaga kelishi, enlama shakl esa qutjilarning tamgʻasi boʻlganligi, Kun chiqishdagi jabarqa va Kun botishdagi indeyts aynlarda

ham ana shu tamg'a hozirgacha saqlanganligi qayd etilgan. Jahon munajjimlik fani amaliyotida eng avval O'zbekiston hududidagi enlama (kenglik) nuqta Ali Qutji (Qutchi)ning ajdodlari tomonidan topilganligi, bu joy, ya'ni Niyoztepadan turib Samarqand nujum ilmi maktabi olimlari G'iyosiddin Koshiy, Qozizoda Rumiyy, Mirzo Ulug'bek osmondagi yulduzlar harakatini aniq kuzatishganligi, keyinchalik kuzatuv natijalari Samarqanddagi rasadxonada Mirzo Ulug'bek va Ali Qutji tomonidan tahlil qilinganligi izohlangan. O'ta qobiliyatli o'kuzbeklar (qutji, qiyot, qong'irot va naymanlar) har doim ilmga chanqoq, intiluvchan bo'lishgani uchun ilm-fan, harbiy va savdo sohalarida keng faoliyat ko'rsatishganligi, qutji va naymanlarda harbiy-vatanparvarlik, qiyot va qong'irotlarda diplomatik qobiliyat ustun bo'lganligi, qutjilar o'z ichida ikki aymoqqa oq tug'li qutjilar va qora tug'li qutjilarga bo'linishi, turlarda ham qadimdan aylana tamg'ali bayroqlar e'zozlanganligi, Sohibqiron Amir Temur va Mahmud G'aznaviyning bayroqlarida ham ushbu tamg'ani ko'rish mumkinligi e'tirof etilgan. Turlarning bir qismi bo'lgan aynlar tabiiy quvvatlanish manbai Quyoshning chiqish joyiga yetish maqsadida Sharqqa qarab ko'chib, Jabarqaga borib qolishganligi, ammo ular aylana shaklli tug' va tamg'alarini saqlab qolishganligi bayon qilingan. Qutji aynlarining yana bir qismi tabiiy quvvatlanish manbai Quyoshning botish joyiga yetish maqsadida G'arb tomonga qarab ko'chishganligi, Bering quruqligi o'tib Amerika qit'asiga kirib borgan indeys va mayyalar ekanligi va ular ham tug'larida enlama shaklni asrab qolganligi sharhlangan. Amerika qutjilarining tilidagi turkiy so'zlar, Gvatemaladagi Quchi shahri, turlar olovdan unumli foydalanish uchun o'choqni kashf qilganligini, issiqlik va havo yordamida toshtemirni eritib chukun, temir va po'lat olganligi to'g'risida ma'lumot berilgan. Mahmud Koshg'ariy turlarning aslzodasi bo'lgan o'kuzbeklarning Qutluq xoqon va Mungul xoqonning zurriyotlari ekanligini, Nosiriddin Rabg'uziy ham o'kuzbeklarni "qutlug' zotlig'", "mo'g'ul sonilig'" deb ta'riflaganini asos sifatida keltirgan. Turlar va turkiylar har doim yakka xudolikka e'tiqod qilganligi, Allohdan har bir bergan omonati uchun izn so'rash uchun rozgohlar yuzaga kelganligini, manmanlik bois islomdan adashish sababli otashparastlik va buddaviylik dinlari yuzaga kelganligi tushuntirgan. Sopolli madaniyati tufayli Jarqo'ton qal'asi, rozilik so'rash joylarining mohiyati o'zgarib Hindistonda budda ibodatxonalarining yuzaga kelganligi, asli hund-u xitoy bo'lgan uyg'urlarning buddaviylik diniga sig'ingani, buddizm

yer yuzida keng tarqalgan din ekanligi, kushonlar davridagi buddizmning shakllanishiga asos bo'lgan rozgohlarning O'zbekistonning Surondaryo viloyati hududida saqlanganligi, Buyuk Irak yo'lini uchta tarmog'i Kushon saltanati hududidan o'tganligi, budda obidalariga asos bo'lgan obidalarni o'rganishda faol qatnashgan yapon olimi Kato Kyudzo, Dalvarzintepa, Xolchayontepa, Fayoztepa, Qoratepa, Ayritom qal'asi, Xayrabodtepa, Darband istehkomi, Temir darvoza, Zurmala stupasi, Tavka qal'asi, Tumanqo'g'on qal'asi kabi obidalar haqida fikrlar bildirilgan.

---

## OKUZBEKS ARE FOUNDERS OF THE WORLD SCIENTIFIC CIVILIZATION

*Uroqboy Lafasov*

*Doctor of Philology, associate professor,  
Tashkent State University of Oriental Studies  
Tashkent, Uzbekistan*

---

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Allah, universe, human, Earth, Safiyullah, Noah, Ibrahim, Muhammad, Som-Abulajam, Hom-Abulhind, Yofas-Abut-Turk, Tur, Turan, Turkestan, types, Uzbeks, Ayns, sakura, chia, Jabarqa, Sun, fire, food, protection, latitudinal point, mark of boxes, Indians, Maya, Astronomy science, observatory, capital, small observatory, Baghdad, Mamun academy, Mount Kosion, Guatemala, Guchi city, hearth, heat, air, flint, cast iron, iron, steel, Pottery culture, Jarqoton Castle, Rozgoh, Buddhism, Kushons, Great Iraq Road, Dalvarzintepa, Holchayontepa, Fayoztepa, Karatepa, Ayritom Castle, Khayrabodtepa, Darband Fortification, Iron Gate, Zurmala Stupa, Tavka Castle, Tumanq'on Castle.

**Abstract:** This article ("Okuzbeks are founders of the world scientific civilization") provides information about the fact that God, the owner of great power, created the world and introduced Islamic laws to ensure the fair and free living of people. It is written that Islam was brought down to earth together with man and that the Creator renewed Islam four times. It is noted that these updates took place during the time of Safiyullah, Noah, Ibrahim and Muhammad (pbuh). It is explained that the incomparable God created the sun as the main source of energy for the constellations built for people. Moreover, it is explained that he gave grass as a gift to people on the globe to live a better life and get additional energy. At the same time, it is said that the descendants of Adam and Eve on earth began to experience real protection and the taste of food with the help of fire, and this continued until Noah's flood. It has been given a detailed understanding that the people living on Earth are descended from the three sons of Noah, Som-Abulajam, Hom-Abulhind, Yofas-Abut-Turk. It is also reported that Turan and Turkestan were given to Yofas (Tur) who received the blessing of the father and that his descendants were called Turs. It is explained that the ancestors of the species are the Uzbeks, and the Ain, who are the basis of the Japanese, belong to the species. It is stated that there are five points of latitude (latitude) on Earth where the Blue Planet and stars are clearly visible, all of which are in the habitat of the species. In addition, it was noted that when the points are joined, a circular shape is formed, and a horizontal shape is the mark of the boxes. It is reported that this mark is still preserved in Jabarqa signs at sunrise and Indian and Mayan signs at sunset. In the practice of world

astrology, the first point of latitude (latitude) in the territory of Uzbekistan was found by the ancestors of Ali Qutji (Qutchi), and this place, that is, from Niyoztepa, scientists of the Samarkand School of Astrology Ghiyosiddin Koshi, Qazizoda Rumi, Mirza It is explained that Ulugbek clearly observed the movement of the stars in the sky, and later the observation results were analyzed by Mirzo Ulugbek and Ali Qutji at the observatory in Samarkand. Highly talented Uzbeks (Kutji, Qiyat, Kangirot and Nayman) have always been eager and eager for knowledge, so they have been widely active in the fields of science, military and trade, Kutji and Nayman have military-patriotism, Qiyat and the fact that the diplomatic abilities of the blacks are superior, the kutjis are divided into two regions, the white-breeded kutjis and the black-breeded kutjis. It is recognized that this stamp can be seen on the flags of Ghaznavid. The Ainu, a part of the species, migrated to the East in order to reach the source of natural energy, the rising of the Sun. It is stated that they went to Jabarqa, but they kept their circular knots and marks. It is explained that another part of the Kutji Ainn migrated to the West in order to reach the setting of the Sun, the source of natural energy, they are the Indians and Mayas who entered the American continent after crossing the Bering land, and they also preserved the horizontal shape in their roots. Turkic words in the language of the American Kurjis, the city of Guchi in Guatemala, it is reported that the species invented the hearth in order to make effective use of fire, and with the help of heat and air, they melted iron and obtained cast iron, iron and steel. Mahmud Koshghari claims that the Uzbeks, who are noblemen of the species, are descendants of Kutluq Khagan and Mungul Khagan, Nasiruddin Rabguzi also described the Uzbeks as "Kutlug breed" and "Mongul stock". brought He explained that the Turks and Turks always believed in monotheism, that there were razgohs to ask God for permission for every trust they gave, and that the religions of fire worship and Buddhism arose due to arrogance and straying from Islam. Jarqo'ton Castle characteristic of Sopolli culture, changing the nature of the places of asking for consent, the appearance of Buddhist temples in India, the worship of Buddhism by the Uyghurs, who are originally Indo-Chinese, Buddhism is the most widespread religion on earth, It is described in detail that the Rosgohs, which were the basis for the formation of Buddhism during the Kushon period, were kept in the territory of the Surondarya region of Uzbekistan. The fact that Buddhism is a widespread religion on earth, that the traditions that formed the basis for the formation of Buddhism during the Kushan period were preserved in the Surkhandarya region of Uzbekistan, that three branches of the Great Silk Road passed through the territory of the Kushan kingdom, and that the monuments that were the

basis of Buddhist monuments Japanese scientist Kato Kyuzo, who took an active part in the study, commented on monuments such as Dalvarzintepa, Holchayontepa, Fayoztepa, Karatepa, Ayritom Castle, Khayrabodtepa, Darband Fortification, Iron Gate, Zurmala Stupa, Tavka Castle, Tumanq'on Castle.

## ОКУЗБЕКИ – ОСНОВАТЕЛИ МИРОВОЙ НАУЧНОЙ ЦИВИЛИЗАЦИИ

### *Урокбой Лафасов*

*доктор филологических наук, доцент,*

*Ташкентский государственный университет востоковедения*

*Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Аллах, мир, человек, Земля, Сафиуллах, Ной, Абраам, Мухаммед, Сом-Абуладжам, Хом-Абулхинд, Ёфас-Абутурк, Тур, Туркестан, туры, укузбеки, айны, сакура, чия, Джабарка, Солница, огонь, пища, защита, точка широты, клеймо кутджи, индейцы, майя, Гватемала, город Кучи, очаг, тепло, воздух, каменное железо, чугун, железо, сталь, керамическая культура, крепость Жаркутан, место поклонения, буддизм, кушаны, Великий Шёлковый путь, Далварзинтепе, Халчаёнтепе, Фаёзтепе, Каратепе, Крепость Айритам, Хайрабадтепе, крепость Дербенд, Железные ворота, Ступа Зурмалы, крепость Тавка, крепость Туманкотан.

**Аннотация:** В этой статье (“Окузбеки основатели мировой научной цивилизации”) говорится, что Аллах, великий и всемогущий, создал Вселенную и ввел исламские законы для обеспечения справедливого и свободного существования людей, ислам был ниспослан на землю вместе с человеком и он обновлялся четыре раза. Эти обновления касаются в периоды Сафиуллаха, Ноя, Авраама и Мухаммеда (с.а.в). Также здесь сказано, что созвездие, построенное для непревзойденных людей-хранителей, дарит день в качестве основного источника энергии, и что люди на Земле будут жить лучше, а также получают дополнительную энергию, было сказано, что трава была подарком, что потомки земного отца-человека и матери-воздуха почувствовали истинную защиту и вкус пищи с помощью огня, и это продолжалось до потопа Ноя. Люди, ныне живущие на Земле, произошли от трех сыновей Ноя, Сом-Абуладжам, Хом-Абулхинда, Иофас-Абут-турка. Иофас (тур), получивший отцовское благословение, получил в свое правление Туран и Туркестан, и его потомки были названы турками, родоначальниками вида были укузбек, а айны, отцы-основатели японцев, принадлежали именно к этому виду, дерево сакура у японцев на самом деле ни что иное как чия, а название Джабарка (Япония) у них интерпретируется как “место, где есть земля”. Было отмечено, что на Земле есть пять точек широты, где ясно видны планета и звезды на небе, все они находятся на территории, населенной турами, что при соединении точек возникает круглая форма, а широкая форма являлась клеймом у кутджи, что эта же клейма сохранилась и на лунах Джабарка на восходе солнца и у индейцев, проживающих в сторону заката и Майя. В мировой практике астрологической науки прежде всего отмечалось, что точка широты на территории Узбекистана была обнаружена предками Али Кутджи, это место, т. е. из Ниязтепе ученые самаркандской

школы науки нуджум Гиясиддин Коши, Казизода Руми, Мирза Улугбек наблюдали за точным движением звезд на небе, результаты последующих наблюдений были получены в обсерватории в Самарканде. Дан анализ этим результатам со стороны Мирзо Улугбеком и Али кутджи. Тюркские слова встечаются на языке американских индейцев, город Кучи в Гватемале, сообщают, что этот вид открыл печь, чтобы эффективно использовать огонь, плавя камень с помощью тепла и воздуха, получая чугуны, железо и сталь. Махмуд Кошгари приводит в качестве основания, что окузбеки, являвшиеся родоначальниками рода, были потомками Кутлук-хана и Мунгул-хана, а Насириддин Рабгузи также описал огузов как “потомков Кутлука и моголов”. Он объяснил, что турки и тюркоязычные всегда верили в Единого Бога, что они просили у Аллаха разрешения и благодарили за каждую долю, который он им давал, что огнепоклонство и буддийские религии возникли из-за высокомерия и отклонения от ислама. Характерный для гонимой культуры замок Джаркутан, изменилась природа мест, где просят согласия Аллаха, возникновение буддийских храмов в Индии, поклонение буддийской религии уйгуров, родоначальником которой был Инди-Китай, буддизм – широко распространенная религия на земле, положившие начало формированию буддизма Кушанского периода, сохранились на территории Сурхандарьинской области Узбекистана, Великий Шелковый путь, и что три её сети проходили именно через территорию Кушанского царства. Японский ученый Като Кюдзо принимавших активное участие в изучении памятников, лежащих в основе Далварзинтепа, Холчаёнтепа, высказывал мнение о таких памятниках, как Фаёзтепа, Каратепа, крепость Айритом, Хайрабодтепа, укрепление Дарбанд, железные ворота, ступа Зурмала, крепость Тавка, крепость Туманган.



---

## KIRISH

Buyuk qudrat egasi bo'lgan Alloh olam va odamni yaratib, insonlar adolatli va erkin yashashlarini ta'minlash uchun islom qonunlarini joriy qildi. Yerga odam bilan islom birga tushirilgan va Yaratuvchi zot Yer yuzidagi islom dinini to'rt marta yangilagan. Shu bois ulug' ulamolar o'z tilovatini: “Avval Odam Safiyulloh, Nuh nabiyulloh, Ibrohim halilulloh, Muhammad rasululloh”, deb boshlaydilar. Buning ma'nosi shuki, islom dini Yerga Safiyulloh (“tanlangan”) bilan birga kelgan. So'ng Nuh yalavaj davrida va Ibrohim payg'ambar zamonida yangilangan. To'rtinchi yangilanish esa pasul Muhammad (s.a.v) davrida bo'lib, muqaddas va o'zgarimas kitob Qur'oni Karim nozil bo'lgan.

Tengsiz yaratuvchi zot Parvardigor tomonidan insonlar yashashi uchun bino qilingan yulduzlar turkumiga asosiy quvvatlanish (energiya) manbai sifatida Kun (Quyosh) yaratilgan.

Alloh Yer sharidagi odamlar yanada yaxshi hayot kechirishlari, qo'shimcha kuch-quvvat olishlari uchun ularga ikkinchi quvvatlanish (energiya) manbai bo'lgan o't (olov)ni in'om qilgan. Shu asnoda Yerdagi Odam ota (odam ma'nosi tuproq, asl ismi Safiyulloh, ma'nosi tanlangan , kuniyasi Abulbasha) va Havvo ona (havvo ma'nosi egilgan suyak, asl oti Hayotbaxsh, ma'nosi tirik , ikkinchi nomi Oftoboyim)ning zurriyotlari olov yordamida haqiqiy himoyani va taom lazzatini his eta boshladilar. Mazkur hayot Nuh alayhissalom davri, to'fongacha davom etgan.

Ikki quvvatlanish manbai	
Kun ( <i>Quyosh</i> )	O't ( <i>olov</i> )
	

Buyuk olim Mirzo Ulug'bek to'fon tufayli Nuhning kemasida jon saqlagan odamlarning quruqlikka qaytish voqeasini shunday bayon qilgan: "Onhazrati Nuh alayhissalom va u kishining uch farzandi: Som, Hom, Yofas, Nuh alayhissalom o'g'illarining xotinlaridan tashqari hech kim qolmadi ". Vaqt o'tib Nuh payg'ambar Yer yuzidagi hududlarni o'z o'g'illariga taqsimlab bergan: "Shom, Jazira, Iroq, Fors, Xuroson (Eron), Ozarbayjon, aksar Vasatiya ma'mur mamlakatlarini Somga bergan edi ". Shuning uchun Som ibn Nuh "Abul-ajam" nomini olgan. "Marg'ib diyori va Habasha shaharlari, Zanax, Hinduston orollari, Hind-u Sund va Sudon Hom hissasiga tushgan edi ". Shundan so'ng Hom ibn Nuhga "Abul-hind" sifati berilgan. Nuh yalavaj "Turonzamin va Turkistonni Yofas alayhissalom uchun asrab qo'ygan edi ". Shu sababli uni "Abut-turk" deyishgan. Nuhning o'g'li Yofas ota nomusini jasurlik va jur'at bilan himoya qilgani uchun otasi uni: "Sening avlodlaring islom qo'riqchilari bo'lsin va ularning orasidan payg'ambarlar chisin", deb duo qilgan. Yofas ibn Nuhning ikkinchi nomi Tur bo'lgan va uning avlodlari turlar, ular yashagan joy esa Turon deb atalgan.

Yofas (Tur) ibn Nuh		
Tur	turlar	Turon

Turlarning aslzodalari, boshqaruvchi qatlam esa o'kuzbeklar (qutji, qiyot, qong'irot, nayman) hisoblanadi. Ular otasini o'ta darajada hurmat qilgani va ulug' sanagan zurriyotlar bo'lgani bois Tangri ularga beqiyos darajada aql-zakovat ato etgan. Shuning uchun o'kuzbeklar dunyo tamaddunini boshlab bergan va doimo tamaddun asoschilari sifatida qadrlangan

qavmlardir. Turonning sharqiy chegarasi bo'lgan Jabarqada yashayotgan ayn (aynli)lar (ular yaponlarga asos bo'lgan el) qutjilar va qo'ng'irotlar tarkibida hozir ham saqlangandir. Qutchilarning qadim makoni Chiyali (Sakurali) hududida hozir ham chiya (sakura) o'sadi.

O'kuziya		Jabarqa	
<i>o'kuzbeklar (qutji, qiyot, qong'irot, nayman)</i>		<i>aynlar (qutji, qong'irot)</i>	
<i>chiya</i>	<i>Chiyali</i>	<i>sakura</i>	<i>Sakurali</i>

Aslida aynlarning bir qismi Kun (Quyosh)ning chiqadigan joyiga yetish maqsadida Chin-Mochin orqali Yapon orollari Jabarqaga borib qolishgan. Jabarqa (Yaponiya) ham Buyuk Turon hududi hisoblanadi. Mazkur ma'lumot Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarida keltirilgan. Jabarqa termini quyidagi so'zlarning birikuvidan yuzaga kelgan: جَابِرْقَا (ja – joy, بَر bar – bor, قُق qa(q) – quruqlik) ya'ni "quruqlik bor joy" дир. Mazkur orollarda turkiy xalqlarning yaqin qarindoshlari bo'lgan aynlilar istiqomat qilishadi. Yapon aynlarining ko'rinishi, shakl-shamoili, tuv (bayrog'i), tamg'asi va ko'pgina urf-odatlar o'kuzbeklarnikiga o'xshashining bosh sababi shundandir.

Yer yuzida Ko'k (osmon)dagi sayyora va yulduzlar juda tiniq ko'rinadigan beshta enlama (kenglik) nuqta bor. Bularning to'rttasi turkiy aynlar yashaydigan hududda, bittasi esa yapon aynlari istiqomat qiladigan hududda joylashgan.

Enlama (kenglik) nuqtalar				
<i>Yukayya (AQSH, turkiylar)</i>	<i>Geytersberg (AQSH, turkiylar)</i>	<i>Karloforte (Italiya)</i>	<i>Kitob (O'zbekiston)</i>	<i>Mitsudzava (Yaponiya)</i>



Agar ana shu nuqtalar chiziqlar orqali birlashtirilsa, enlama (aylana) shakl yuzaga keladi. Shuning uchun qutjilar o'zlarining asosiy tamg'asi sifatida aylana, ya'ni quyoshga o'xshash shaklni olishgan va ularning tug'i (bayrog'i)da ham ana shunday shakl aks etgan. Bu holat qutjilarning qadimiy osmon ilmidan yaxshi xabardor ekanligi yana bir bor tasdiqlaydi. Yer yuzidagi beshta enlama (kenglik) nuqtalarini bilishgan. Jahon munajjimlik fani amaliyotida eng avval O'zbekiston hududidagi enlama (kenglik) nuqta qutjilar, ya'ni Ali Qutji (Qutchi)ning ajdodlari tomonidan topilgan. Ular keyinchalik bu joy, Niyoztepani Mirzo Ulugbekka ko'rsatishgan. Mirzo Ulug'bek o'sha joyga kichik rasadxona qurdirgan. Samarqand nujum ilmi maktabi olimlari G'iyosiddin Koshiy, Qozizoda Rumiy, Mirzo Ulug'bek Niyoztepada turib osmondagi yulduzlar harakatini aniq kuzatishgan. Keyinchalik kuzatuv natijalari Samarqanddagi rasadxonada Mirzo Ulug'bek va Ali Qutji tomonidan tahlil qilinib (Samarqanddagi rasadxona qurilishi tugaguncha G'iyosiddin Koshiy va Qozizoda Rumiy vafot etishgan) ilmiy xulosalar chiqarilgan. Mazkur fikrga asos sifatida asar qo'lyozmasi yakunida Ulug'bek mirzoning "Ziji jadidi Ko'ragoniy" asarini mualliflari sifatida G'iyosiddin Koshiy, Qozizoda Rumiy, o'zi (Mirzo Ulug'bek) va farzandi arjuman Ali Qutjini alohida yozib qo'yganligi ko'rsatish mumkin. Agar




jahon nujum ilmi tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak, ulkan rasadxonalar (ilmiy markazlar)ning barchasi o'rdakent (poytaxt) shaharlarda faoliyat ko'rsatganligi, ammo yulduzlarni kuzatadigan kichik rasadxonalar esa tog'larda barpo etilganligiga guvoh bo'lamiz. Jumladan, Bag'dod Ma'mun akademiyasining ilk rasadxonasi Bag'dodda qurilgan. Lekin yulduzlarni kuzatish Kosion//Koshion tog'idagi kichik rasadxona olib borilganligi ilmiy asarlarda yozib qoldirilgan. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, har doim osmon jismlari baland tog'lardagi ochiq, havosi musaffo joylarda kuzatilgan.




O'ta qobiliyatli qutji, qiyot, qong'iro't va naymanlar har doim ilmga chanqoq, intiluvchan, barcha jabhalarda ilg'or bo'lishgan. Ular davlatni boshqarish, ilm-fan, harbiy va savdo sohalarida keng faoliyat ko'rsatishgan. Qutji va naymanlarda harbiy vatanparvarlik, qiyot va qong'iro'tlarda diplomatik qobiliyat ustun bo'lgan. Shu bois qutjilar va naymanlar har doim Buyuk Turonning xavfsizligini ta'minlashga, tashqi dushmanlardan mardona himoya qilishga bosh bo'lishgan. Turlarning dushmanlari aynan qutji va naymanlardan juda qo'rqishgan hamda ularning hurmatini joyiga qo'yishga majbur bo'lishgan. Qutjilarning saltanatdagi doimiy lavozimi elik (hukmdor), bosh vazir, hukmdor qarorgohi boshlig'i va tan soqchi vazifalari bo'lgan. Qutjilar o'z ichida ikki aymoqqa oq tuv (tug'li) qutjilar va qora tuv (tug'li) qutjilarga bo'linishgan. Ularning tuv(tug'li)laridagi aylana tamg'a bir xil bo'lib, bayroqlar faqatgina rang jihatdan farqlangan, xolos.

Oq tuvli qutjilar	Qora tuvli qutjilar
	

Turlarda ham qadimdan aylana tamg'ali tug' (bayroq)lar e'zozlangan. Ushbu holat an'ana sifatida doimo saqlanib kelgan. Asosiy, ya'ni o'zak tushunchaga yangicha qarashlar asosida yondashilgan. Natijada asos tushucha saqlangan va umumiy an'ana davom ettirilgan. Jumladan, Sohibqiron Amir Temur va Mahmud G'aznaviy ning bayroqlarida ham ushbu tamg'ani ko'rish mumkin.



Turlarning bir qismi bo'lgan aylar tabiiy quvvatlanish manbai Kunning chiqish joyiga yetish maqsadida Chiqish (Sharq) tomonga qarab ko'chib ketaverishgan. Oxir-oqibat Jabarqa ("quruqlik bor joy"), ya'ni Yaponiya orollariga borib qolishgan. Ammo ular ota-bobolaridan meros va muqaddas bo'lgan aylana shaklli tuv (tug') va tamg'alarini saqlab qolishgan.



Qutji aylarining yana bir qismi tabiiy quvvatlanish manbai Kun (Quyosh)ning botish joyiga yetish maqsadida Botish (G'arb) tomonga qarab ko'chib ketaverishgan. Natijada Bering quruqligi (keyin bo'gozga aylangan) orqali o'tib Amerika qit'asiga kirib borishgan. Ular Shimoliy va Markaziy Amerikada istiqomat qilishayotgan indeys va mayyalardir. Amerika turlari, ya'ni indeys hamda mayya qujilari ham ajdodlarining an'anasiga sodiq qolgan holda tuv (tug')larida enlama (aylana) shaklni asrab qolishgan.

Indeyslar bayroqlari



Ushbu holat hududdan qat'iy nazar qadim qarindoshlarni o'zaro birlashtiruvchi dalil sanaladi. Amerika turlarining asosiy qismi Markaziy Amerika (Gvatemala) ga borib makon qurishgan. U yerda hozir ham K'ich' (Quchi) shahri bor. Mazkur mayyalar ota-bobolarining urf-odatlarini, udumlarini saqlab qolishgan. Ularning tilida hozir ham turkiy so'zlar asosiy ko'pchilikni tashkil qiladi.

Turlar ( <i>qutjilar, qong'irotlar</i> )	
Indeys ( <i>qujilar</i> )	Mayya ( <i>qujilar</i> )

Amerikalik tur, ya'ni quchilar tilida qo'llanayotgan quyidagi so'zlarni misol sifatida keltiramiz :

№	Turkiy so'zlar	№	Turkiy so'zlar
1	chak ( <i>uchaq</i> )	12	ich ( <i>ichmoq</i> )
2	Sol-Kun ( <i>Sana-Kun, ya'ni taqvim-kalendar</i> )	13	kiyik ( <i>kiyik</i> )
3	kalama ( <i>qatlama</i> )	14	kayak ( <i>qayiq</i> )
4	chal ( <i>chol-oqsoqol</i> )	15	koy ( <i>qo'ymoq</i> )
5	Kun ( <i>Quyosh</i> )	16	Kuk ( <i>ko'k, osmon</i> )
6	kul ( <i>qo'l</i> )	17	ulu ( <i>ulug'</i> )
7	ul ( <i>o'g'il</i> )	18	kuch ( <i>kuch</i> )
8	ach ( <i>ochmoq</i> )	19	ok ( <i>o'q</i> )
9	baldiz ( <i>qaynsingil</i> )	20	ol ( <i>olmoq</i> )
10	chok ( <i>ko'p</i> )	21	son ( <i>so'ng</i> )
11	ip ( <i>ip</i> )	22	jel//el-shabada



Insonlar har doim ishonchli himoyada yashashlari uchun o'zlarini, dinini va mamlakatlarini qo'riqlashlari shart bo'lgan. Buning uchun esa sinmaydigan, qattiq va mustahkam qurol-yarog'lar zarur edi. Ana shu himoyani ta'minlash uchun Yaratgan koinotdan Yerga toshtemirni tushurgan. Toshtemirni olov yordamida eritishning sirini esa turlar (islom qo'riqchilari)ga ato etgan. Ular avval o't yoqishni o'rganganlar. Olovdan unumli foydalanish uchun o't+yoq=o'tyoq – o'choq kashf qilishgan.

Yerdagi quvvatlanish manbai	
o't (olov)	o't+chaq=o'chak//o't+yoq=o'choq

Turlarning aslzodalaridan qutjilar aqlni ishga solib, issiqlik yordamida toshtemir eritishni o'rgandilar. Issiqlikni me'yoriy yo'naltirishni bilmaganlari bois dastlab chuk+un+di=chukun //chugun//cho'yan hosil bo'lgan. Keyinchalik turlar issiqlikni bir me'yorda taqsimlashda havodan foydalanishni anglaganlar. Buning natijasida dam+ur=temir, jel+uzat=jelezani olishga erishganlar. So'ngra issiqlikni pog'onalar ko'tarishni topganlaridan keyin po'p+lat=po'latni olishga muvaffaq bo'lganlar.

O't yordamida olingan ma'danlar		
<i>chuk+undi – chukun</i>	<i>dam+ur=temir, jel+uzat=jeleza</i>	<i>po'p+lat=po'lat</i>

O'kuzbeklarning aql mahsuli tufayli turlar hamda turkiylar elini, Vatanini va dinini himoya qila oldilar. Allohni ulug'lagan va islomni unutmagan turkiylar har doim o'z e'tiqodlariga sodiq qoldilar. Bu haqda buyuk olim Mahmud Koshg'ariy o'zining "Devoni lug'tit turk" asarida shunday yozgan: "Alloh davlat quyoshini tur(u)klar burjida yaratdi. Falakni ham shularga moslab aylantirdi. Ularni tur(u)k deb atadi, mulkka ega qildi, ularni zamonamizning xoqonlari qilib ko'tardi ". Mazkur izohda Mahmud Koshg'ariy turlarning aslzodasi bo'lgan o'kuzbeklarni nazarda tutgan. Chunki Qutluq (Eltarish) xoqon va Mungul (Bilga) xoqonning zurriyotlari bo'lgan o'kuzbeklar turlarni mustamlakachilar zulmidan ozod qilgan mulk egalari . Nosiriddin Rabg'uziy ham o'z asarida bu masalaga oydinlik kiritib izoh bergan: "...yigitlar arig'i (poki), ulug' otlig', qutlug' zotlig', ezgu xulqlig', islom yorig'liq, mo'g'ul sonilig', musulmon dinli, odamiylik inonchi, mo'minlar quvonchi, himmati adiz (yuksak), aqli tengsiz begimiz". Turlarning ilg'or qatlami bo'lgan o'kuzbeklar jahondagi son-sanoqsiz imperiyalarini tuzishgan. "Ular (turklar) shu darajada ko'p va ulug' saltanatlar tuzganlarki, bizlar hatto ularni bilmaymiz ham ".

Turuk ibn Yofas (Tur)			
<i>o'kuzbek (o'zbek)lar</i>	<i>O'kuziya</i>	<i>turuk (turk)lar</i>	<i>Turukiston (Turkiston)</i>

Turlar va turkiylar har doim yakka xudolikka (islom, shamanizm, yana islom) e'tiqod qilishgan. Turkiylar yashaydigan hududlarda islomiy ibodat maskanlari bilan bir qatorda Allohdan har bir bergan omonati uchun izn so'rash uchun rozgoh (rozilik so'rash joyi)lari yuzaga kela boshlagan. O'z davrida insonlar rozgohlarda Allohga shukrona keltirib, barcha ne'matlari uchun minnatdorchilik bildirganlar va o'z navbatida kelajak ishlar uchun rozilik so'rashgan. Islomda olov har doim quvvatlanish va turli balolarga qarshi kurashish vositasi bo'lgani bois unga alohida e'tibor qaratilgan. Bunga hozirgacha saqlangan islomiy sunnat qilish jarayonidagi ustarani olovga toblablash, kesilgan joyga paxtani kuydirib bosish kabi odatlar misol bo'la oladi.

Manmanlik oqibatida insonlar islom dinidan adasha boshlaganlar. Buning natijasida otashparastlik va buddaviylik dinlari shakllangan. Nuhning Som ismli o'g'ildan tarqalgan qavmlar esa kibr sababli Yaratganni unutib rozgohlardagi olovni muqaddas bila boshlaganlar va o'tga topinish oqibatida otashpastlik dini yuzaga kelgan. Otashpastlik (zardushtiylik ) dini Eron va Yuqori Hindistonga keng tarqalgan. Sopolli madaniyati O'kuziya (O'zbekiston)ning janubiy hududlarida miloddan avvalgi 17-10 asrlarda shakllangan, jez davrida ham yerli aholi dehqonchilik bilan shug'ullanishgan. O'sha davrga tegishli madaniy yodgorliklarga Sopollitepa, Jarqo'ton, Mo'latepa, Bo'ston, Bo'yrachi, Nurek, Tandiryo'l kabi obidalar kiradi.

Jarqo'ton qal'asi Sopolli madaniytning juda qadimiy obidalaridan biridir. Yodgorlik hozirgi Surxondaryo viloyatining Sherobod tumani hududida joylashgan, uning umumiy maydoni 100 gektar, shundan uch gektari ark, qolgan qismi shahristondir. Qal'a ichida hokim saroyi, qo'rg'on, hunarmandlar va kulollar mahallasi, ikkita qishloq, otashli rozgoh va 3000 ga yaqin qabr topilgan. Jarqo'ton qal'asi O'kuziya shahar me'morchiligining qadimiy uslubida, ya'ni to't rtburchak shaklida qurilgan va yetti gazli baland tashqi devor bilan o'ralgan. Devorning ma'lum joylarida burjlarda qo'riqchilar turgan va qa'la tashqi dushmanlardan himoya qilingan. Qal'aning ichki qismi turarjoy binolaridan iborat bo'lgan. Otashli rozgohda turli

xonalar, uzun yo'lakli ayvon, tabarruk narsalar saqlanadigan joylar va to'rt ustunli qubba shaklidagi keng maydondan iborat bo'lgan. Jarqo'ton otashli rozgohi Markaziy Osiyodagi eng qadimgi inshootlardan biridir. Rozgoh doira shaklidagi olti sajda joyi, muqaddas quduq, tabarruk buyumlar saqlanadigan maxsus joy va xo'jalik buyumlari xonasidan iborat bo'lgan. Rozgoh markazida katta supa, uning o'rtasida to'rt minora qoldiqlari va katta sajda joyi mavjud bo'lgan. Din ahli istiqomat qiladigan supali xonalar, muqaddas olov va kulxonalar, tabarruk ichimlik tayyorlanadigan xonalar borligi aniqlangan. Rozgoh o'chog'idan sirlangan va bezakli sopol buyumlar, loydan yasalgan haykalchalar, afsonaviy qush Humo tasviri bor idish, sopol quvurlar va boshqa narsalar topilgan. Ular muqaddas deb hisoblashgan o'choqda olov yonib turgan. Qaladan turli uy-ro'zgor buyumlari, har xil tosh va bronzadan yasalgan qurollar, taqinchoqlar va ma'budlarning haykallari topilgan. Mozorlarda o'sha davr insonarining yashash sharoitidan aniq guvohlik beruvchi buyumlar, ayollarning qabridan esa turli idishlar, taqinchoqlar, surmadonlar va jezdan ishlangan ko'zachalar borligi aniqlangan.

Jarqo'ton qal'asidan topilgan ashyolar						
<i>haykallar</i>	<i>idishlar</i>	<i>ko'zachalar</i>	<i>qurollar</i>	<i>taqinchoqlar</i>	<i>surmadonlar</i>	<i>sopol quvurlar</i>

Islom dinida ona yuksak hurmatga loyiqligi bois odamlar har doim rozilik so'rash ona vositasida amalga oshirishgan. Shuning uchun rozgohlardagi ona timsoli turlardagi validaga bo'lgan cheksiz ehtiromni bildirgan. Qadimiy otashli rozgoh bo'lgan imoratlarning qoldiq xarobalarini hozirgi Surhon vohasida ko'p uchratish mumkin. Ushbu qadamjolar sho'ro davrida boshqa din (buddizm, xristian) vakillari bo'lgan olimlar tomonidan o'rganilganligi bois, ular o'z e'tiqodlari asosida xulosa chiqarish asnosida ularni budda yodgorliklari sifatida talqin qilishgan. Aslida bu yodgorliklar islomdan otashparastlik va buddizm dinlarning ajralishi davridagi rozgohlar bo'lib, keyinchalik kushonlar davrida ushbu rozgohlar hindlar tomonidan o'zlashtirilgan.

Nuhning Hom ismli o'g'ildan tarqalgan qavm(hind)larda boylik tufayli manmanlik chuqur ildiz ota boshlagan. Dindan qaytgan kibrli boy-badavlat kishilar istagiga ko'ra vaqt o'tib turlardan ularga o'tgan otashli rozgohlar ibodatxonaga aylangan. Natijada Yaratgandan rozilik so'rash joylarini ular budda ibodatxonasi sifatida talqin qilina boshlagan. Boylik sababli ular Allohdan tonib tosh (toshtemir)ga sig'ish boshlanganlar. Buning natijasida budlar yasalgan, asta-sekin ona timsoli o'rnini Budda sanamlari egallay boshlagan.

Davrlar o'tib buddaviylik dini hindlardan xitoylarga, ulardan yaponlarga tarqalgan. O'zlarini turkiy deb biladigan uyg'urlar aslida hund-u xitoylarning aralashishidan yuzaga kelgan qavm hisoblanadi. Bu haqda Mahmud Koshg'ariy o'zining "Devonu lug'atit turk" asarida yozib qoldirgan: "Uyg'urlarning tili turkchadir. Lekin ularning yana bir tillari bor. O'zaro o'sha tilda so'zlashadilar". Uyg'urlar buddaviylik diniga sig'inishgan. Mahmud Koshg'ariy turkiylar tilidan shunday yozgan: "Biz seldek uyg'urlarga oqdik, shaharlar ichiga kirdik, budxonalarni yiqitdik, hatto budlar ustiga o'tirdik (bulg'atdik)". Hom va Som avlodlarining aralashuvdan shakllangan qavmlar, jumladan arablar ham budda diniga e'tiqod qilishgan.

Buddizm yer yuzida islom va xristian dinlaridan keyin keng tarqalgan din hisoblanadi. Miloddan avvalgi 1-2-asrlarda Markaziy Osiyodagi otashli rozgohlarning talqini o'zgarishidan shakllangan. Miloddan avvalgi 5-6-asrlarda Hindiston, Chin (Xitoy), Quriya va Jabarqa

(Yaponiya)da yoyilgan . Hozirgi kunda Tibet, Shiri Lanka, Myanma (Birma), Tailand, Laos, Kambodja, Vyetnam, Butan va Yaponiya singari davlatlarning asosiy dini hisoblanadi . Buddizm ta'limotiga ko'ra hamma narsa o'zgaruvchan, hatto Xudoning ham o'zgarib turishi e'tirof etiladi.

Markaziy Osiyodagi Kushon saltanati miloddan avvalgi 4-1-asrlardan milodiy 1-3-asrlargacha faoliyat ko'rsatgan. Chin yilnomalarida kushonlar "guyshyan" shaklida izohlangan. Kushon davlatiga O'kuziya (Markaziy Osiyo), hozirgi Sharqiy Turkiston, hozirgi Afgoniston, hozirgi Pokiston va hozirgi Hindistonning asosiy qismi kirgan. Kushonlar hukmdori jabag'u/jabg'u/yobg'u/yobu/yabu deb atalgan. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida j(y)abaqu "bir toifa turkiy xalqlar" deb izohlangan . Tilshunos olim ana shu lug'aviy birlikka o'xshash yana bir termini ham sharhlagan. J(y)afg'u "xalqdan chiqqan xoqondan ikki pog'ona quyi turadigan shaxs (boshliq) ". Yuqorilardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, kushonlar turlarning forslar bilan aralashgan qorishiq qavmi hisoblanadi. Ular Munsak ibn Yofas avlodlari, ya'ni munsaklar sanaladi. Ularning ota tomoni turlar, ona tarafi esa forslardir. Munsaklar ona tarafining tili bolgan fors tilida so'zlashganlar. Munsaklarga xorazmliklar, saklar, massagetlar va sug'dlar kiradi. Ular turlarning aslzodalarga ota tomondan amaki avlod hisoblangani bois quyiroq maqomda bo'lishgan. Bunday holat hozirgacha saqlangan va bunga tarixda ham dalillar mavjud. Yobularning kimligi haqida Shohbaxt Shayboniyxon quyidagi tuyuqni yozgan: Sug'd ichinda o'ltutubdur yobular, Yobularning mingan oti yobular. Yobularning ilgidan el tinmadi, Yo bular bo'lsin bu yerda yo bular. Yobular jussasi yirik, mushaklari baquvvat bo'lgani uchun ulardan ko'p polvonlar yetishib chiqqan. Ilmiy izohga ko'ra, yobu zotli ot ham haybatli, gavdasi katta bo'ladi . Aynlar bilan yobular ham ketgani uchun hozirgi Yaponiyaning Xyogo mintaqasida Yabu shahri bor. 1970-yilda tug'ilgan yaponiyalik mashhur kurashchi, dzyudoist Yabu Naomo ning ismidida ham shunday atama mavjud. Kushonlar hukmdor Kan Ishka (Xan Ishka) davrida saltanat yanada ravnaq topgan. Davlatning shimoliy qismi hisoblangan Hisor tog' tizmasi daralarida mustahkam devor bunyod etilgan. Kushonlarning asosiy ittifoqchisi Yabon ibn Nuhning avlodlari yabonlar (yunonlar) bo'lgan. Buyuk ipak yo'lining ikkita quruqlik va bitta suv yo'li tarmog'i Kushon mamlakatidan o'tgan edi:

1) Qitayndan boshlangan birinchi savdo yo'li Chin, Sharqiy Turkiston, Kushon, Sug'diyona, G'arbiy Turon, Eron orqali Yunoniston va Misrgacha borgan;

2) Qitayndan boshlangan ikkinchi savdo yo'li Chin, Sharqiy Turkiston, Kushon, Elkun (Xorazm), Yuqori Turon, O'rol to'g'ini yoqalab Shimoliy Turongacha borgan;

3) Qitayndan kelgan savdogarlar O'kuz (Amudaryo)dan ulkan kema va katta qayiqlarda Elkun/Xorazm (Orol) orqali Hazor (Kaspiy) dengizigacha suzib borib savdo qilishgan.

Buyuk ipak yo'lining atrofida juda ko'p qal'a va shaharlar bunyod etilgan.

Mahshur Sopolli madaniyatining uzviy davomi sifatida Kushonlar davri madaniyati shakllangan. Mazkur qadimiy obidalarni o'rganishda faol qatnashgan, yurtimiz tarixiga tegishli madaniy yodgorliklarning sirini ochish va ularni jahon ilm ahliga ma'lum qilishda mashaqqatli mehnati qilgan ilm ahli juda ko'p, ana shunday zahmatkashlardan biri yapon arxeolog olimi Kato Kyudzodir.

Kato Kyuzo 1922-yilning 18-mayida Yapon imperiyasiga qarashli Shimoliy Koreyaning Kyosan provintsiyasida tug'ilgan. Ikkinchi jahon urushidan oldin Sofiya universitetida ta'lim olishni boshlagan. Keyin urushga qatnashib, Sovet Ittifoqida asirlikda bo'lgan. Afv etilgandan keyin Yaponiyaga qaytgan va o'qishini davom ettirgan. Universitetni bitirgandan keyin "Xeybonsya" qomuslar nashriyotda ishlagan va ilk ilmiy tadqiqotlari o'sha paytda yozilgan.

1972-yilda O'zbekistonga kelgan hamda O'zFAsi bilan hamkorlikni boshlagan. Kato Kyudzo Surxondaryo viloyati hududidagi Dalvarzintepa, Xolchayon, Fayoztepa va Qoratepa kabi qadimiy obidalaridagi qazish ishlarida shaxsan qatnashgan. Barcha taassurotlarini ilmiy asarlarida bayon qilgan. Kato Kyudzo 2002-yilda Tokay nashriyatida "Oyxonim" monografiyasini nashr ettirgan. Keyinchalik uning "Dalvarzintepa shahri", "Janubiy O'zbekiston qadimiyati", "Buyuk Ipak yo'li chorrohasida", "Yevroosiyo tamadduniga sayohat" va "O'ra Osiyoning ulug' insonlari" kabi tadqiqotlari nashr etilgan. Kato Kyudzo buyuk siymolar Amir Temur, Mirzo Ulugbek va Bobur Mirzolarining asarlarini yapon tiliga tarjima qilgan. Kato Kyudzo ilmiy tadqiqotlari uchun Osako universitetining faxriy professori bo'lgan. Taniqli arxeolog, faxriy professor, Termiz shahrining faxriy begi (grajdani) Kato Kyudzo o'zbek jurnalistlariga bergan intervyusida shunday degan edi: "Men, yaponman, ammo O'zbekistonni o'zimga ikkinchi Vatanim deb bilaman, men ushbu davlatning faxriy begi (grajdani) bo'lganimdan faxrlanaman". Kato Kyudzo yaponlarning ota-bobolari aynlar Surxondaryodan ketganligini bilganida edi. Mening asl Vatanim O'kuziya (O'zbekiston) va men esa "o'kuzbekman" (o'zbekman) degan bo'lar edi. 2002-yilning 2-aprelida tashkil etilgan Termiz arxeologik muzeyining birinchi qavatida yapon olimi Kato Kyudzoning ilmiy faoliyati aks etgan ko'rgazma zali bor. Surxon vohasi Kushon madaniyatining qadim maskani hisoblanadi, u yerda yirik va noyob tarixiy obidalar juda ko'p:

Dalvarzintepa shahar xarobasi bo'lib, miloddan avvalgi 4-1-asrlarda bunyod etilgan. Dalvarzintepa Kushon saltanati o'rdakent (poytaxt) bo'lgan. Umumiy maydoni 47 gektar va ikki qal'aga bo'lingan. Ichki qal'a 12 gaz qalinlikdagi mudofaa devori bilan o'ralgan bo'lib, unda hukmdor saroyi joylashgan. Tashqi qal'a 7 gaz qalinlikdagi himoya devori bilan to'silgan va unda aslzodalar, ruhoniylar, hunarmandlar, kulollar va savdogarlar istiqomat qilishgan. Tashqi qal'ada bir necha shohko'cha va ko'plab katta ko'chalar bo'lgan. Dalvarzintepa shahar xarobalari hozirgi Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumani markazidan 10 chaqirim shimoli-sharqda joylashgan. Qadimiy obidani o'rganish 1962-yilda boshlangan. Shahar xarobasining shimoliy qismi 1967-yilda arxeologlar G.Pugachenkova va M.E.Masson otashli rozgoh va ajoyib tasviriy lavhalar topishgan. 1972-yilda qal'aning shahar qismi qazilganda 36 kg oltin buyumlar xazinasini topilgan va bu Britaniya muzeyida saqlanayotgan Amudaryo xazinasidan qolishmaydi. Yapon arxeolog olimi Kato Kyudzo ko'hna shahar xarobalarini qazish ishlarida qatnashgan. Bundan tashqari fil suyagidan ishlangan shaxmat donalari (miloddan avvalgi 1-2-asrlar), turli qimmatbaho toshlar, tangalar va sopolidan yasalgan noyob buyumlar topilgan.

Dalvarzintepadan topilgan ashyolar				
<i>oltin buyumlar</i>	<i>shaxmat donalari</i>	<i>qimmatbaho toshlar</i>	<i>tangalar</i>	<i>sopol buyumlar</i>

Xolchayon majmuasi (hukmdor saroyi, Xonaqohtepa, Qorabog'tepa, Maslahattepa va boshqa imoratlar) miloddan avvalgi 2-1-asrlarda bunyod etilgan. Majmua hozirgi Surxondaryo viloyati Denov tumani hududida joylashgan. Tarixiy obida G.Pugachenkova (1959-63), Kato Kyudzo (1972) tomonidan o'rganilgan. Majmua doimiy suv bilan ta'minlangan istehkom, saroy, turli binolar va bog'dan iborat bo'lgan. Hukmdor saroyida yog'och o'ra (ustun)li ayvon, taxt uchun xona, yo'lak va boshqa qismlar pishiq g'ishtdan ishlangan. Devorlarga turli surat hamda naqshlar solingan. Rasmlarda uzum g'ujumi, gullar, yaproqlar va ularning orasidan ko'rinib



turgan mevalar tasviri aks etgan. Sochi silliq taralgan baqtiriyalik yigit, uning yonida boshqa etnik guruhga mansub yigit tasviri qoldiqlari topilgan. Aslida bino haykallar bilan bezatilgan, ular yelimli tabiiy bo'yoqlar bilan bo'yalgan. Suratlarda ayol va erkak qiyofalari aks etgan. Shuningdek sovut kiygan jangchilarga bilan maslahat berayotgan hukmdor va jang ko'rinishi tasvirlari mohirona ishlangan. Xolchayondan xum, tog'ora, ko'za, sopol kosa va piyola kabi idishlar; xanjar, qilich kabi qurollar; turli taqinchoq va tangalar topilgan.

Dalvarzintepadan topilgan ashyolar				
<i>sopol idishlar</i>	<i>jang qurollari</i>	<i>taqinchoqlar</i>	<i>haykallar</i>	<i>tangalar</i>

Fayoztepa otashli rozgohi milodiy 3-1-asrlarda bunyod etilgan. Yodgorlik 1968-yilda mahalliy cho'pon Absad Beknayeving ohaktoshdan ishlangan ona haykalchasini uchma qum ustidan topib olib, Termiz o'lkashunoslik muzeyiga topshirishganidan keyin aniqlangan. Fayoztepa obidasi Qoratepa yodgorligidan bir chaqirim shimoli-g'arbda joylashgan. Rozgohni o'rganish 1968-1976-yillarda arxeologlar L.I.Albaumov, Kato Kyudzo tomonidan amalga oshirilgan. Yodgorlik uch qism: monumental inshoot, markazi otashli rozgoh va 20 ta xonali to'rtburchak ayvonli hovlidan iborat. Hovlining shimoli-g'arbida monastr va xo'jalik-qurilish imoratlari borligi aniqlangan. Binoning uzunligi 117 metr, kengligi 34 metr, maydoni 1,5 ming kvadrat metrga tengdir. Ayrim xonalarda turli haykallarni o'rnatish mo'ljallangan tagkursilar bo'lgan.

Qoratepa g'or otashli rozgoh majmuasi uchta tabiiy do'nglik ustiga milodiy 1-asrda bunyod etilgan va 2-3-asrlarda ravnaq topgan. Majmua Eski Termizning shimoli-sharqiy qismida joylashgan. Yodgorlik sakkiz gektardan iborat g'orlar to'plamidir. Janubiy do'nglikda o'n beshta, g'arbiy do'nglikda beshta g'or to'plami, shimoliy do'nglikning sharqiy qismi yer ustida joylashgan monumental majmua bo'lgan. Hovli to'rt tomondan qubbasimon tomli baland aylanma yo'laklar bilan o'ralgan bo'lib, ular hovlini yonma-yon devorlar oralig'ida joylashgan o'tish yo'llari bilan bog'lagan. Aylanma yo'laklar bo'yab gumbaz tomli qator kichkina to'rtburchak hujralar joylashgan. G'arbiy qismi yer ustida esa o'rtacha hashamatli otashli rozgoh bo'lgan. Uning devori marmarsimon ohaktoshdan tayyorlangan lavha (friz)lar bilan bezatilgan. Ularda ilohiy timsollar hayot bilan uyg'un tasvirlangan. Yodgorlikni o'rganishni 1926-28-yillarda moskvalik olimlar boshlashgan. Keyin M.E.Masson, E.G.Pchelina (1937), B.Y.Staviskiy (1960), Kato Kyudzo (1972)lar tomonidan o'rganilgan. Hozir Sh.Pidayev rahbarligida qazish ishlari olib borilmoqda. Qoratepa rozgohi o'z davrida eng katta va mahobatli inshoot bo'lib, unda mahalliy me'morchilik uslubi aniq ko'zga tashlanadi. Dunyoning to'rt tarafiga qaratib qurilgan stupa uning markazi hisoblangan. Ushbu g'orlardan iborat otashli rozgoh uslubini keyinchalik hindlar o'z ibodatxonalariga o'zlashtirishgan. Bu joyda yangi rozgohlar ham qurilgan, eskilari esa ta'mirlab turilgan. Majmuadan soppoldan ishlangan idishlar, kosa, ko'za, haykallar va chiroqdondar; ohaktoshdan ishlangan me'moriy bezaklar va plitalar topilgan. Qoratepa majmuasidagi me'moriy bezaklar qo'shni mintaqalarga o'z ta'sirini o'tkazgan.

Qoratepadan topilgan ashyolar				
<i>sopol idishlar</i>	<i>haykallar</i>	<i>me'moriy bezaklar</i>	<i>chiroqdonlar</i>	<i>tasvirli lavha (friz)lar</i>

Ayritom ko'hnna shahar xarobasi Termiz qal'asidan 7-8 chaqirim uzoqlikda Amudaryo qirg'og'ida mavjud bo'lgan. 1932-yilda Amudaryo tubidan odam surati ishlangan tasvirli lavha (friz) bo'laklari topilgan. 1933-yilda esa bu joyda otashli rozgoh xarobasi qoldiqlari mavjudligi va yettita friz bo'laklarining o'sha rozgohga tegishli ekanligi aniqlangan. Ushbu yodgorlik M.Y.Masson (1932-33), B.Turg'unov (1963-66) kabi olimlar tomonidan o'rganilgan. Frizlar milodiy 1-2-asrlarga oid bo'lib, ularda qo'shnay, chiltor, ud va nog'ora cha-layotgan sozandalar, gulchambarlar hamda meva solingan idishlar ko'tarib olgan yigit-qizlar tasviridan iborat. Ushbu inshoot milodiy 1-asrda Amudaryoning baland qirg'og'ida eski bino xarobalari tekislanib tasvirli osma qismlar (blok) bilan bezalgan holda qurilgan. Mahobatli otashli rozgoh uch tomondan mudofaa devorlari va minoralar bilan o'ralgan. Tasvirli osma qismlar bino peshtoqlari tepasini va unga kirish yo'llarini bezab turgan. Ayritom qal'asidan topilgan sakkizta yotiq koshindan iborat tasvirli lavha (friz) alohida burchak bezaklarida ikki qator akant barglari tasvirlangan, ularning o'rtasida ko'kragigacha bo'rttirib ishlangan, barglar orasida uchib yurgan odamlar mavjud. Ular arfa, ud, qo'shnay va do'mbira chang chalayotgan samo farishtalari hamda gulchambar taqqan, mevali idishlar ko'targan hurlardir. Tasvirda tur va turkiylarga xos etnik xususiyatlar – katta dumaloq yuz, bir oz katta qiyiq ko'z, chakkaga tortilgan qoshlar, qirra burun, kichkina og'iz va yuzga yarashgan bejirim iyak alohida ko'rsatilgan. Ularning hammasi chiroyli liboslarda hashamli bosh kiyimlar kiyishgan va qimmatbaho taqinchoqlar taqishgan. Tasvirdagi siymolarning yuzida hayajon, yoshini ko'rsatuvchi alohida belgilar yo'q. Lavhada tarkidunyo qilgan kishining jonsiz qiyofasi aks ettirilgan. Akant barglari tasvirdagi hajm va shakl andozalarining o'lehami bir xil. Bu Kushon badiiy-madaniy uslubining o'ziga xos, afzal tomonlaridan sanaladi. Ayritom qal'asi tasvirli lavha (friz)da aks etgan sahnadagi besh musiqa sozining ovozi marhumga orom baxsh etishi va uni oxirgi yo'lga gullar bilan kuzatib qo'yish holati keyinchalik taomilga aylangan. Otashli rozgohlardagi ushbu taomil hind buddaviylikiga asos bo'lib xizmat qilgan. Qal'adan topilgan tasvirli lavha (friz)dagi tasvirda mahalliy aholining etnik ko'rinishi o'z aksini topgan. Bu holat esa Kushon tasviriy san'ati asoschilari bo'lgan tur qavm (yobon va munsak)laridagi otashli rozgohlari ta'sirida hindlardagi buddaviylik shakllanganligini ko'rsatadi. Ayritom qal'asidan ikkita qabr topilgan, ular qadim an'analarga ko'ra ko'milgan. Birinchisi qurol-yarog'i bilan dafn qilingan jangchi, ikkinchisi zeb-ziynatlari bilan ko'milgan ayolning jasadidir. Ayritom rozgohidan bir chaqirim uzoqlik masofada sirti tosh qolip bilan himoyalangan stupa 1964-yilda kavlab olingan. 1979-yilda rozgoh yonidan olti satrli yunon yozuvi yozilgan matnli tagsupa, yana ikki qahramon tasvirlangan toshlavhali haykal tagkursi ham topilgan. Ayritom rozgohi turlarning kushonlar davridagi tarixi, madaniy merosi, urf-odat va udumlarini o'rganish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ayritom otashli rozgohi devorining qalinligi ikki gaz, balandligi ikki yarim gaz bo'lgan. Shuningdek kengligi uch yarim gazdan iborat o'n beshga yaqin kirish yo'lagi bor eshik-derazasiz chillaxona qabilidagi ibodat joylari topilgan va ularga maxsus zinalar orqali tushilgan.

Ayritom shahridan topilgan ashyolar				
<i>tasvirli lavha (friz)</i>	<i>qurol-yarog'lar</i>	<i>zeb-ziynatlar</i>	<i>tagkursi</i>	<i>stupa</i>

Xayrabodtepa shahar qal'asi miloddan avvalgi 1-asrda asos solingan Kushonlar davridagi inshootdir. Obida hozirgi Surxondaryo viloyati Angor tuman markazidan janubdagi qishloqda joylashgan. Yodgorlik L.I.Albaumov (1950-55), V.D.Jukov, Q.Sobirov (1970-72)lar tomonidan o'rganilgan. Xayrabodtepa qal'asi arki inshootning janubi-sharqida joylashgan. Arkning umumiy maydoni 50x50 bo'lib, qal'adan xandak va devorlar bilan ajratilgan. Qal'ada aholi doimiy yashashi uchun mo'ljallangan imoratlar va xo'jalik binolari mavjud bo'lgan. Xayrabodtepa qal'asidan topilgan Rim hukmdori Neron tangasi o'z davrida munsaklaning yabonlar bilan savdo-sotiq va madaniy aloqalarini tasdiqlaydi.

Darband chegara istehkomi miloddan avvalgi 2-asrning 4-choragida bunyod etilgan. Obida eramizning 1-2-asrlarida qayta ta'minlangan. Istehkom Boysun tog'ining ikki tomoni tog'lar bilan o'ralgan Oqqutol dovonida joylashgan va o'z davrida bojxona vazifasini bajargan. Imoratning uzunligi 1,5 chaqirim, balandligi 6 gaz va qalinligi 7 gazni tashkil etadi. Devorlari yo'nilgan tosh va xomg'ishtdan qurilgan.

Temir darvoza ikki tabaqali, temirdan yasalgan keng eshiklar bo'lib, harbiy istehkomning o'tish joyiga qurilgan. Istehkom Kushonlar davlati hududida milodiy 2-asrda bunyod etilgan. Darvoza juda baland, haybatli tog'lar orasidagi Boysun tog'ining Oqqutol dovonidagi Sorimos qoyasidagi daradagi tor yo'l ustiga qurilgan. Temir darvoza haqida chinlik sayyoh Syuan Tszyan (milodiy 630-yil) ham o'z kundaligida ma'lumot bergan.

Zurmala stupasi milodiy 2-3-asrlarga tegishli Eski Termizning sharqida joylashgan inshootdir. Ushbu obida Kushonlar davriga tegishli otashli rozgohga aloqador stupa ekanligi aytiladi. Imorat aslida bir milliondan ortiq xomg'ishtdan qurilgan. Uning tashqi tomoni ohaktosh va yuqori qismi qizil rang berilgan pishiq g'ishtdan ishlangan. Hozirgacha saqlanmagan tashqi qoplamaning uzunligi 13 metr, aylanasi 14,5 metr va balandligi esa 16 metr bo'lib, sirti tosh bilan qoplangan. Stupaning tepa qismidagi gumbaz, aylanasi silindr shaklida bo'lgan va uning qoldiqlari hamon kishini hayratga soladi. Gumbaz ostida diniy kitoblar, turli haykallar va boshqa tabarruk narsalar saqlanganligi taxmin qilinadi.

Tavka qal'asi milodiy 3-4-asrlarda qurilib, 5-6-asrlarda ravnaq topgan. Obidani o'rganish 1933-38-yillarda boshlangan. Qal'aning umumiy maydoni bir gektarga teng bo'lib, hozirgi Surxondaryo viloyati Sherobod tumani hududida joylashgan. Inshoot o'ziga xos beshta burj-maydonchalardan tashkil topgan. Obida sohil bo'yidan boshlanib tog'ning past-balandligiga ko'ra shimoli-sharqiy yo'nalish bo'ylab 100 metr, to'g'ri burchak ortida shimoli-g'arbga tomon qayrilib yana 100 metr masofada kengayib markaziy inshootga taqaladi. Binoning devorlariga ishlangan suratlarda o'sha davr aslzodalari guruh-guruh bo'lib yovvoyi hayvonlarni ov qilish jarayoni aks ettirilgan. Ot choptirib borayotgan chavandozlar, ular ta'qibidan jon saqlashga intilayotgan tovushqon va kiyiklar holati o'ta mohirlik bilan tasvirlangan. Ushbu manzarani zavq bilan tomosha qilayotgan qiz-juvonlarning tasviri ham ustalik bilan chizilgan. Suratlar Kushon davri tasviriy san'ati an'analari rivoj topib yangicha tus va rang jilolari aks etgan.

Tumanqo'g'on qal'asi uch tomoni jarlik bilan tutashgan, tevaragi devori bilan o'ralgan Chiqish (Sharq) va Botish (G'arb) ni bog'lovchi yirik savdo markazi sifatida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Qal'adan noyob badiiy san'at namunalari, taxtga o'tirgan ma'buda (ona), musiqa

chalayotgan ayol haykalchalari, bezakli sopol idishlar, halqasimon bilakuzuklar, jez uzuklar va qo'g'irchoqlar topilgan. Buyumlar orasida xorijiy yurtlardan keltirilgan ashyolar, jumladan Misr pistasidan yasalgan havorang munchoq ham bor.

### XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Alloh olam va odamni yaratib, insonlar adolatli va erkin yashashlarini ta'minlash uchun islom qonunlarini joriy qilgan. Shu asnoda islomni to'rt marta yangilagan. Turlar va turkiylarning aslzoda qatlami o'kuzbeklardir. O'kuzbeklar hisoblangan qutjilarning tamg'asi aylana shaklida bo'lgan. Qutji va qo'ng'irotlardan ajralgan aynlilarning bir qismi Sharqqa, bir qismi G'arbga ko'chishgan. Sharqda aynlilar yaponlarning, G'arbda esa indeys va mayyalarning shakllanishiga asos bo'lgan. Surxon vohasida saqlangan otashli rozgohlar hindlardagi budda ibodaxonalariga paydo bo'lishiga zamin yaratgan. Turlar sanalgan o'kuzbeklar va aynlardagi umummadaniy ildizlar bir-biri bilan chambarchas hamda mustahkam holda bog'lanib ketgan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Аҳмадали Асқаров. Сополли маданияти. Тошкент: “Фан”. 1989. 20-бет.
2. А.Асқаров, Б.Абдуллаев. Жарқўтон. Тошкент: “Фан”, 1983. 3-бет.
3. U.P.Lafasov. Relationship between Turks and Japanese. “International journal of scientific & texnology research”. Volume 9, Issue 02, February 2020, page 3935.
4. U.P.Lafasov. Cultural roots of okuzbeks and Japanese. International Journal of Early Childhood Special Education. Vol 14, Issue 02, 2022, page 4220.
5. U.P.Lafasov. Ali Kushchi and his scientific legacy (Али Кушчи и его научное наследие). Казакстан. “Turkic Studies Journal”, Нур-Султан, ISSN 2664-5157. Number 1, Volume 2, 2020. Стр. 53-62.
6. U.P.Lafasov. The Migration of the Japanese from the Center of Turan to the East (Японларнинг Турондан кўчиши). Journal of Contemporary Issues in Business and Government Vol. 27, No. 1, 2021, page 382.
7. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғатит турк. Уч томлик. I том. Т., 1960. “Фан” нашриёти. 65-бет.
8. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғатит турк. Уч томлик. II том. Т., 1963. “Фан” нашриёти. 386-бет.
9. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Уч томлик. 3-том. Тошкент: “ЎзФА” нашриёти. 1963, 43-бет.
10. Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи. Т., “Чўлпон” нашриёти, 1994, 16-бет.
11. Нишонбой Ҳусанов. Ўзбек антропонимлари тарихи. Тошкент: “Наврўз” 2014, 36-бет.
12. Носириддин Бурҳониддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. 1-китоб. Тошкент: “Ёзувчи” нашриёти. 1990, 6-бет.
13. Русско-персидский словарь. Москва. Издательство “Советская энциклопедия”. Стр. 392.
14. Шарль Луи Монтескье. Персидские письма. Москва: “Канон-пресс-ц кучково поле”, 2002. Стр. 28.
15. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-том. 2000, Тошкент: “ЎзМЭ”, 164-бет.
16. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2-том. 2001. Тошкент: “ЎзМЭ”, 583-бет.
17. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-том. 2002. Тошкент: “ЎзМЭ”, 683-бет.
18. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 5-том. 2003. Тошкент: “ЎзМЭ”, 558-бет.
19. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 9-том. 2005. Тошкент: “ЎзМЭ”, 679-бет.
20. Ғани Абдурахмонов, Алибек Рустамов. Қадимги туркий тил. 1982. Тошкент: “Ўқитувчи”. 65-бет.
21. <https://bigenc.ru/ethnology/text/2070658>

22. <https://youtu.be/PKBa>
23. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Buddizm>
24. [kh-davron.uz](http://kh-davron.uz).
25. <https://ru.m.wikipedia.org>
26. <https://www.surxondaryo.uz/blog/viloyatining-tarikhij-jodgorliklari>
27. <https://uzbekistan.travel/ru/o/dalverzintepa/>